

Texnologiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlarning ahamiyati

*Ibroximov Maqsadjon Axmedovich- NamDPI
“Aniq fanlar” kafedrasi o'qituvchisi
Ergashaliyeva Gulsanam Adashali qizi-
NamDPI “Texnologik ta'lim “ yo'nalishi I kurs talabasi*

Annotatsiya: Texnologiya fanini o'qitish orqali o'quvchi yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ta'lim tizimining ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Shuning uchun, ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini boyitish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashni davrning o'zi taqazo etmoqda. Zamon talabiga mos yetuk kadrlarni tarbiyalash zarurati maktab ta'lim mavqeini ham o'zgartirdi. Shunday ekan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda maktab ta'limida darslarda didaktik o'yinlardan foydalanishning o'rni kattadir. Tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun didaktik o'yinlar boshlang'ich o'quvchilarning mavzuni tushunib etishlarida juda ham muhimdir.

Hozirgi rivojlanayotgan O'zbekistonimizning qay bir jabhasiga qaramang

ulkan o'zgarishlar, inshootlar ,yangiliklar yaratilmoqdaki, bu o'z o'rnida har bir fuqarodan katta ma'suliyat talab qiladi. Ta'lim tarbiya sohasidagi islohotlar ham, o'qituvchi , o'quvchi faoliyatiga alohida e'tibor berishga , zamon bilan hamnafas ishlashga jalb qilmoqda. Ta'lim tarbiya berishda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi , mahorati va bilimdonligi, zamonaviy pedtexnologiyalar, interfaol usullarni darslarda qo'llay olishi ham juda muhimdir.

Didaktika – grekcha “didaktikas” so'zidan olingan bo'lib, “o'qitish” ma'nosini anglatadi.

Didaktik o'yin – bu mos keladigan ta'lim berish usulidir. Texnologiya ta'limida o'quvchilarning yosh xususiyatlari , shaxsiy tabiatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali loyixalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirishva jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari : intellektual (aqliy) va harakatli hamda

aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy,

ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu ko'nikmalarni texnologiya fanini o'qitishda singdirish, rivojlantirib boorish juda ham zarur.

Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga , o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga kirishishga , ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa,

unda atrof-muhit , hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchi-larda ta'lim olish motivlarini , ularni turli yo'nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan , biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan , didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy , jismoniy, rolli , ishchanlik, va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilardagi tahlil qilish, mantiqiy fikrlash , tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish , guruh yoki jamoa tarkibida ishlash , yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlar nafaqat o'qitishning amaliy yo'nalishi kuchayishiga, balki o'quvchilarning dars jarayonida o'zlashtirayotgan nazariy bilimlarini mustahkamlanishiga olib keladi. Ta'kidlash joizki, didaktik o'yinlarni tashkil etishdan oldin bu jarayonga puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Bunda asosiy e'tibor mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlardan mavzuga moslarini tanlash, mashg'ulotning qaysi bosqichida ularni amalga oshirilishini belgilash, o'yinning shartini o'quvchilarga aniq tushuntirish kabilarga qaratiladi. Garchi, interfaol o'yinlar yangi bilimlarni chuqur bermasada, darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Didaktik o'yinlar o'zining tashkil etilish shakillariga ko'ra individual (yakka) ,guruhli(kichik va katta guruhlar) va yalpi (butun sinf o'quvchilari ishtirokida) tarzida bo'ladi. Pedagog xodimlarni ta'lim jarayonidagi nazariy bilimlarni yanada rivojlantirish , ularda mustaqil fikrlash , muammoga ijodiy yondashish layoqatlarini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan unumli foydalanish ijobiy samara beradi

Masalan *Evrika* (o'ylab top) o'yini . O'yinning bu turi o'quvchilarni fikr yuritishga, to'g'ri javobni topishga va xulosaga kelishga undaydi.

Mozaika(o'rmini top joylashtirish) o'yini . Bu o'yinni texnologiya fanida har

bir mavzuga moslashtirib tashkillash mumkin. 5-sinflarning "Fartuk tikish" mavzusida ko'radigon bo'lsak, fartuk ko'rinishi chiziladi hamda fartuk nechta detaldan tashkil topgan bo'lsa, shuncha bo'lakka bo'linadi, bo'laklarning orqa qismiga fartuk mavzusiga doir savollar yoziladi.

O'quvchilar savollarga javobni topib bo'laklar birlashtiriladi.

Breyn-ring. Bu o'yin 2-guruhga kirib, unda har birida 5–6 nafardan o'quvchi qatnashgan jamoalar soni 2 tadan 5 tagacha bo'lishi mumkin. Boshlovchi har bir guruhga qisqa javobli savollar beradi. Agar ishtirokchilardan biri birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, qolgan barcha savollar faqat shu ishtirokchiga beriladi va har bir to'g'ri javob uchun olingan ball to'planib boradi. Agar to'plangan ballni vaqtida o'z jamoasi hisobiga tushirib turmasa va o'yinni to'xtatmay, o'yin davomida noto'g'ri javob berib qo'ysa, o'sha ishtirokchi to'playotgan barcha ballar kuyib ketadi. Demak, qatnashuvchi o'zi istagan paytda o'yinni to'xtatishi va to'plagan ballni jamoa hisobiga tushirishi kerak. Qolgan savollarga endi boshqa ishtirokchilar javob berishi lozim va ular ham o'z jamoalari hisobiga ball to'plash imkoniga ega bo'ladilar. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball.

Zanjir o'yini. Guruh 4ga bo'linib, har bir guruhdan 1 o'quvchi doska oldiga chiqariladi. 1 o'quvchi fanga tegishli atamani aytadi. Keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi aytganini va o'zinikini qo'shib aytadi. Undan keyingisi oldingi 2 o'quvchi aytgan atamalarga yana o'zi yangisini qo'shib aytadi. O'yin shu tariqa davom etadi, adashgan o'quvchi o'yindan chiqadi, eng oxiri o'yindan chiqib ketmay qolgan o'quvchi rag'batlantiriladi. O'yin xotirani mustahkamlashga juda qo'l keladi.

Kim chaqqon? Guruh ikkiga bo'linib, har bir guruhdan bittadan o'quvchi doska oldiga chiqariladi. Bir o'quvchi fanga tegishli atamani o'zining maydoniga yozadi. Keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi yozmagan qo'shimcha atamani ishlatadi. O'yin shu tariqa davom etadi, adashgan o'quvchi o'yindan chiqadi. Kimning maydonida eng ko'p to'g'ri, mantiqiy bog'langan tushunchalar paydo bo'lsa, shu jamoa g'olib sanaladi. O'yin xotirani mustahkamlashda va takrorlashda qo'llaniladi.

Yuqoridagi barcha mulohazalarni umumlashtirib, o'yinli texnologiyalarni

qo'llash natijasida quyidagi mulohazalarni o'rnlidir:

1. Didaktik o'yinlar o'quv predmetlari bo'yicha dastur materialiga muvofiq yo'sinda tanlanishi lozim.

2. Didaktik o'yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo'yicha ma'lum talablar qo'yiladigan yo'sinda ishlab chiqilishi kerak.

3. Didaktik o'yinning muvaffaqiyatli o'tishi uning maqsadini yaqqol aniqlashiga bog'liq. Chunki bunda o'quvchilarning fikrini maqsadli yo'nalishga solish, ularning ishini bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug'iladi.

4. O'yinlarni tanlashda ma'lum izchillikka rioya qilish ham zarur. Mazmunan qiyin o'yinlardan oldin osonroq o'yinlarni o'tkazib, o'quvchilarni navbatdagi o'yinlarga puxtaroq tayyorlash juda muhimdir. Shu tariqa tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflashda mavhumlashtirish, muayyanlashtirish, umumlashtirish singari aqliy operatsiyalarni asta-sekin murakkablashtirib borish shart.

5. Didaktik o'yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning turli (bo'sh va kuchli, faol va loqayd) guruhlarini hisobga olish kerak.

6. O'yinning qoidalari sodda, aniq bo'lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.

7. Har bir o'quvchi butun o'yin jarayonida faol ishtirok etishi, o'z "navbatini" uzoq kutish o'yinga qiziqishni susaytirishi mumkinligini unutmaslik kerak.

8. Har bir o'yinga umumiy va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda biz bolani jismoniy jihatdan o'stiruvchi oddiy o'yinlardan tortib, kattalar orasida ham mashhur bo'lgan intellektual o'yinlardan iborat bir qancha o'yinlar «ombori»ga egamiz. Barcha o'yinlarda o'yinchi o'yin shartlarini tezda o'zlashtiradi va o'ziga belgilangan vazifani qabul qiladi. O'yin qoidalarini bajarish jarayonida o'yinchi o'zining maqbul qarorlarini o'yindagi muammolarni hal qilishda erkin qabul qilish

imkoniyatiga ega bo'ladi. O'yindagi musobaqa esa shaxsiy sifatning tinmay yaxshilanib borishiga sabab bo'ladi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali ular insoniy fazilatlarini anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yoldoshev J.G`, Usmonov C.A, "Pedagogik texnologiya asoslari" Toshkent-2004y

2.To`xtaxo`jayeva M. X, Ashirboyev C, Hasanboyev J. Nishonova C. Madiyarova C, Qoldibekova A, Usmonboyeva M. "Pedagogika" Toshkent-2005y

3.Hasanboyev J, Sariboyev H, Niyozov G, Hasanbayeva O, Usmonbayeva M. "Pedagogika" o`quv qo`llanma "Fan" nashriyoti Toshkent-2006y

4. Axmedovich, I. M. (2024). XORIJIY TADQIQOTLARDA BO 'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI IJTIMOYIY KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ZARURIYATLARI. Science and innovation, 3(Special Issue 41), 446-449.

5.Ibroximov, M. A. (2023). PROFESSIONAL TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARINING IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 175-179.

6.Azizho`jaeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: TDPU, 2003.